

ANDRAGOG O'QITUVCHIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Saidazimova Saidaxon Abduvoxidovna*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti**Pedagogika tarixi va nazariyasi yo'nalishi 2-bosqich magistranti**E-mail: saidaxonsaidazimova@gmail.com +998 94 672 13 42*

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida andragogik yondashuvning ahamiyati, ayniqsa, kattalar ta'limini amalga oshiruvchi o'qituvchilarga – andragoglarga qo'yiladigan talablar yoritilgan. Muallif andragogik kompetensiyalar, kasbiy malaka, shaxsiy-psixologik sifatlar va innovatsion texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha mezonlarni tahlil qiladi. Shuningdek, imorat (institutsional) darajasida andragog o'qituvchilarning faoliyatini baholash va rivojlantirish mezonlari ko'rib chiqilgan. Maqola andragogika sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, pedagoglar va ta'lim tashkilotlari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Andragog, kattalar ta'limi, professional kompetentlik, shaxsiy sifatlar, metodik mahorat, kommunikativ ko'nikmalar, raqamli kompetentlik, reflektiv amaliyot

 REQUIREMENTS FOR AN ANDRAGOGUE TEACHER

Saidazimova Saidaxon Abduvoxidovna*Chirchik State Pedagogical University, Faculty of Pedagogy, 1st year master's student, Department of History and Theory of Pedagogy**E-mail: saidaxonsaidazimova@gmail.com +998 94 672 13 42*

Annotation. This article highlights the importance of the andragogical approach in the modern education system, especially the requirements for teachers who provide adult education - andragogs. The author analyzes the criteria for andragogical competencies, professional qualifications, personal and psychological qualities and work with innovative technologies. The criteria for assessing and developing the activities of andragog teachers at the institutional level are also considered. The article is of practical importance for specialists, educators and educational organizations working in the field of andragogics

Keywords: : Andragog, adult education, professional competence, personal qualities, methodological skills, communicative skills, digital competence, reflective practice

KIRISH. Zamonaviy jamiyatda inson hayoti davomida o'rganishi zaruratga aylangan. Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanishi, mehnat bozoridagi raqobat kuchayishi natijasida har bir mutaxassis o'z bilim va ko'nikmalarini muntazam yangilab borishi lozim. Ana shunday sharoitda kattalar ta'limi (andragogika)ning o'rni va roli tobora ortib bormoqda.

Andragogika — bu faqat o'quv jarayoni emas, balki insonning shaxsiy va kasbiy jihatdan o'sishiga xizmat qiladigan kompleks tizimdir. Bu jarayonda asosiy figurant — andragog o'qituvchi, ya'ni kattalar bilan ishlay oladigan, ularning ehtiyoj va tajribasini inobatga olgan holda ta'lim beradigan mutaxassisdir.

Shu bois, ta'lim muassasalari (imoratlar) andragog o'qituvchilarga nisbatan umumiy pedagogik yondashuvlardan farq qiluvchi, yanada murakkab va keng qamrovli talablarni ilgari suradi. Ular faqat o'rgatuvchi emas, balki maslahat beruvchi, motivatsiya yaratuvchi va o'quvchilarni faol ishtirokga jalb etuvchi shaxs bo'lishi kerak. Andragog o'qituvchi zamonaviy ta'lim tizimining muhim komponenti bo'lib, kattalar ta'limi sohasida faoliyat yurituvchi yuqori malakali mutaxassis hisoblanadi. Andragog so'zi yunon tilidan "andros" (erkak, kattalar) va "agogos" (rahbarlik qiluvchi) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, kattalarni o'rgatish, ularga rahbarlik qilish va yo'l-yo'riq berish ma'nosini anglatadi. Andragog o'qituvchi oddiy pedagog o'qituvchidan tubdan farq qiladi, chunki u kattalar bilan ishlaydi va ularning o'ziga xos psixologik, fiziologik hamda ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Andragog va pedagog o'rtasidagi farqlar juda chuqur va ko'p jihatlidir. Pedagoglar bolalar va o'smirlar bilan ishlashga yo'naltirilgan bo'lsa, andragoglar yetuk, tajribali va o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan kattalar bilan faoliyat yuritadilar. Bu esa andragog o'qituvchidan alohida yondashuv, maxsus bilim va o'ziga xos ko'nikmalarni talab qiladi. Pedagog o'qituvchi ko'pincha bilim beruvchi, nazorat qiluvchi va bahlovchi rolida bo'lsa, andragog o'qituvchi fasilitator, moderator, maslahatchi va hamkor sifatida harakat qiladi.

Andragog o'qituvchining shaxsiy-kasbiy sifatleri uning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Birinchi navbatda, andragog o'qituvchi yuqori darajadagi empativ qobiliyatlarga ega bo'lishi kerak. Empatiya deganda boshqa odamlarning his-tuyg'ularini tushunish, ularning holatini his qilish va shu asosda munosib yondashuv topish qobiliyati tushuniladi. Kattalar turli xil hayotiy tajribaga ega bo'lib, har birining o'ziga xos muammolari, ehtiyojlari va maqsadlari mavjud. Andragog o'qituvchi bu xilma-xillikni qabul qilish va har bir kattaga individual yondashuvni ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, andragog o'qituvchi yuqori darajadagi sabr-toqat va bardoshlilik xususiyatlariga ega bo'lishi zarur. Kattalar o'rganish jarayonida bolalarnikiga nisbatan ko'proq vaqt talab qilishi mumkin, chunki ularda oldingi bilim va tajribalar mavjud bo'lib, yangi ma'lumotlarni shu bilan uyg'unlashtirishlari kerak bo'ladi.

Ayrim kattalar yangilikka qarshi bo'lishi yoki o'z nuqtai nazarlarini o'zgartirishni istamay qolishi mumkin. Bunday holatlarida andragog o'qituvchi sabr-toqat ko'rsatib, kattalarning o'rganishiga yordam berishi kerak. Uchinchi, andragog o'qituvchi yuqori darajadagi moslashuvchanlik va kreativlik qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim. Kattalar guruhi heterogen (xilma-xil) bo'lib, turli yosh, jins, ma'lumot darajasi, kasbiy tajriba va ijtimoiy holatga ega odamlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Andragog o'qituvchi bu xilma-xillikni hisobga olib, har bir vaziyatga mos yondashuvni topishi va o'qitish metodlarini moslashtirib borishi kerak. Bu esa yuqori darajadagi ijodkorlik va innovatsion yondashuvni talab qiladi. To'rtinchidan, andragog o'qituvchi yuqori darajadagi kommunikativ qobiliyatlarga ega bo'lishi zarur. Kattalar bilan ishlashda so'zlashtirish (verbal) va so'zsiz (nonverbal) muloqot ko'nikmalari juda muhim hisoblanadi. Andragog o'qituvchi tinglash, tushuntirish, savol-javob o'tkazish, munozara yuritish, kelishuvga kelish va ziddiyatlarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, u turli madaniy kelib chiqishga ega kattalar bilan ishlash uchun madaniyatlararo muloqot ko'nikmalariga ham ega bo'lishi zarur. Beshinchidan, andragog o'qituvchi doimiy o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Zamonaviy dunyoda bilim va texnologiyalar juda tez rivojlanib bormoqda, shuning uchun andragog o'qituvchi ham bu o'zgarishlarga moslashib borishi va o'z bilim-ko'nikmalarini doimiy yangilab turishi lozim. Bu uzluksiz ta'lim va hayot davomida o'rganish prinsipini amalda ko'rsatish demakdir. Andragog o'qituvchining bilim va ko'nikmalari talablari keng spektrni qamrab oladi va bir necha asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi. Birinchi yo'nalish androgogika nazariyasi va metodikasi bo'yicha chuqur bilimlardir. Andragog o'qituvchi kattalar o'rganishining psixologik asoslarini, kattalar ta'limining printsiplarini, androgogik modellar va yondashuvlarni yaxshi bilishi kerak. U Malkolm Noulzning androgogik modeli, Jack Mezirowning transformativ o'rganish nazariyasi, David Kolbning tajribali o'rganish nazariyasi va boshqa muhim nazariy asoslarni o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Ikkinchi yo'nalish kattalar psixologiyasi sohasidagi bilimlardir. Andragog o'qituvchi kattalarning kognitiv rivojlanish xususiyatlarini, ularning o'rganish motivatsiyalarini, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini chuqur tushunishi kerak. U yoshlanish jarayonining o'rganishga ta'sirini, xotira va diqqat xususiyatlarining o'zgarishini, stress va tashvish holatlarining ta'limga ta'sirini bilishi lozim. Uchinchi yo'nalish metodika va didaktika sohasidagi bilim va ko'nikmalardir. Andragog o'qituvchi kattalar uchun mos o'qitish usullarini, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini, interaktiv metodlarni, loyihali o'qitishni, muammoli o'rganishni va boshqa ilg'or usullarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. U an'anaviy ma'ruza usulidan tortib, zamonaviy raqamli texnologiyalargacha bo'lgan barcha vositalardan foydalana olishi lozim. To'rtinchi yo'nalish baholash va monitoring sohasidagi

kompetensiyalardir. Andragog o'qituvchi kattalarning bilim va ko'nikmalarini baholashning turli usullarini bilishi, formativ va summativ baholashni to'g'ri qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. U an'anaviy test usullaridan tortib, portfel baholash, hamkorlikda baholash, o'z-o'zini baholash va boshqa innovatsion baholash usullarigacha bo'lgan metodlarni qo'llay olishi lozim.

Andragog o'qituvchining metodik kompetentligi uning kasbiy faoliyatining asosiy komponentidir. Metodik kompetentlik deganda o'qitish maqsadlariga erishish uchun eng mos usul, vosita va shakllarni tanlash va ularni samarali qo'llash qobiliyati tushuniladi. Andragog o'qituvchi turli xil o'qitish metodlarini bilishi va ularni kattalarning ehtiyojlariga qarab moslashtirib qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Birinchi navbatda, andragog o'qituvchi fasilitatsiya ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Fasilitatsiya - bu guruh jarayonlarini boshqarish, muhokamalarni yo'naltirib berish va ishtirokchilarning faol qatnashuvini ta'minlash san'atidir. Kattalar ta'limida o'qituvchi ko'pincha bilim beruvchi emas, balki o'rganish jarayonini osonlashtiruvchi, yo'l ko'rsatuvchi va qo'llab-quvvatlovchi rol o'ynaydi. Andragog o'qituvchi guruh dinamikasini tushunishi, turli temperament va shaxsiyatga ega odamlar bilan ishlash usullarini bilishi va barchaga teng imkoniyat yaratish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Ikkinchidan, moderatsiya ko'nikmalari muhim hisoblanadi. Moderatsiya deganda munozara va muhokamalarni boshqarish, turli fikrlarni tinglash, umumiy xulosa chiqarishga yordam berish va kelishuvga kelish jarayonini olib borish qobiliyati tushuniladi. Kattalar ta'limida ko'pincha munozarasimon mashg'ulotlar o'tkaziladi, bu yerda har bir ishtirokchining fikri qimmatli hisoblanadi va umumiy natijaga hissa qo'shadi. Uchinchidan, mentorlik va koching ko'nikmalari zarur. Mentorlik deganda boshqalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yordam berish, yo'l ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash faoliyati tushuniladi. Kattalar ta'limida ko'pincha individual yondashuv talab etiladi, shuning uchun andragog o'qituvchi har bir ishtirokchining individual ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos yordam berish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. To'rtinchidan, loyiha va dastur ishlab chiqish ko'nikmalari muhim. Andragog o'qituvchi kattalarning ehtiyojlarini tahlil qilish, o'quv maqsadlarini belgilash, o'quv rejalarini tuzish, mashg'ulot rejalarini ishlab chiqish va dasturlarni baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. U maqsad va natijaga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llab, kattalarning real ehtiyojlariga javob beruvchi dasturlar yarata olishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI METODOLOGIYASI

Malkolm Noulzning "The Adult Learner: A Neglected Species" (1973) va "Self-Directed Learning" (1975) asarlari o'rganilishi tavsiya etiladi. Bu kitoblar andragogik yondashuvning asosiy printsiplarini va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishni yoritadi. Stephen Brookfieldning "Becoming a Critically Reflective Teacher" (2017) va "The Skillful Teacher" (2015) asarlari amaliy

jihtadan juda foydali bo'lib, andragog o'qituvchining professional rivojlanishiga yordam beradi. Patricia Cranton va Edward Taylorning "Transformative Learning in Practice" (2012) asari transformativ o'rganish jarayonini tashkil etish bo'yicha amaliy maslahatlar beradi.

Qo'shimcha adabiyotlar sifatida Jack Mezirowning "Transformative Dimensions of Adult Learning" (1991), Paulo Freirening "Pedagogy of the Oppressed" (1970) va David Kolbning "Experiential Learning" (1984) asarlari tavsiya etiladi. Bu manbalar andragogikaning nazariy asoslarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

O'zbek tilidagi manbalar orasida N.A. Shermuxamedovanning "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi", G.B. Shoumarovanning "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" va M.X. Toxirjanovanning "Pedagogik mahorat" asarlari muhim o'rin tutadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili jarayonida mahalliy va xorijiy manbalar o'rganildi. Xususan, Malcolm Knowles, Jack Mezirow, Peter Jarvis kabi olimlarning andragogik yondashuvlari bilan birga, O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlarga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, vazirlik metodikasi, amaliy tajriba va milliy olimlar (A. Sayidov, N. Toshpo'latova, M. G'ulomova) asarlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Tahlil va o'rganilgan tajribalar natijasida quyidagi natijalarga kelindi, ular "andragog o'qituvchiga qo'yiladigan talablar" konsepsiyasini kengaytirish va amaliy jihatdan takomillashtirishga yordam beradi: Andragog o'qituvchining kompetensiyalari odatda quyidagi guruhlariga bo'linadi: Pedagogik va metodik kompetensiyalar: o'qituvchilik metodologiyasi, o'quv materiallarini yaratish, interaktiv dars uslublari, baholash metodlari. Kognitiv kompetensiyalar: ta'lim nazariyalari, adult learning printsiplari, psixologiya bilimlari, o'quvchilarning rivojlanish jarayonlarini tushunish.

Shaxsiy-ijtimoiy kompetensiyalar: empatiya, muloqot, guruh bilan ishlash, motivatsiya, etika va professional odob-axloq.

Texnologik va innovatsion kompetensiyalar: axborot-kommunikatsiya vositalarini bilish, onlayn/o'quv platformalarini qo'llash, innovatsion pedagogik yechimlar yaratish. Profesional rivojlanish va reflektivlik: self-assessment, malaka oshirish, ilmiy izlanishlar, yangicha amaliyotlarni o'zlashtirish.

MUHOKAMA

Andragogik ta'lim tizimi bugungi global va texnologik tez o'zgarayotgan muhitda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, o'quvchi markazli yondashuv, hayot davomida ta'lim olish (Life-long learning) tamoyili asosida o'qituvchining roli tubdan o'zgarib bormoqda. Shunday sharoitda andragog o'qituvchi — ya'ni kattalar bilan ishlaydigan o'qituvchi zamonaviy kompetensiyalarga ega, reflektiv fikrlaydigan, texnologiyani o'zlashtirgan va metodik jihatdan tayyor shaxs

bo'lishi lozim. Tadqiqotda o'rganilgan adabiyotlar, xalqaro va mahalliy tajribalar shuni ko'rsatdiki, andragogik faoliyatda an'anaviy o'qituvchilik kompetensiyalari yetarli emas. Kattalar bilan ishlashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, individual ehtiyojlarni aniqlash, ularga moslashtirilgan metodlarni tanlash, hamkorlikka asoslangan dars jarayoni tashkil qilish va o'quvchini mustaqil fikrlashga yo'naltirish o'qituvchining asosiy vazifasiga aylanmoqda. Adabiyotlar tahlili va amaliy tajribalar ko'rsatdiki, andragog o'qituvchidan quyidagi bir-biri bilan chambarchas bog'langan kompetensiyalar talab etiladi. Yani Metodik kompetensiyalar, shaxsiy ijtimoiy kompetensiyalar, texnologik kompetensiyalar, refleksivlik kompetensiyalardir. Bu kompetensiyalar andragog o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyati va tinglovchi ehtiyojlariga mos ta'lim berish qobiliyatini belgilaydi. Mahalliy tizimda andragog o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari mavjud bo'lsa-da, ular ko'proq nazariy xarakterga ega va zamonaviy metodika, texnologik vositalardan foydalanish, muammoga asoslangan o'qitish kabi yondashuvlar kam yoritilgan.

Aksincha, xorijiy tajribalarda andragog o'qituvchining faoliyatida mustaqil o'rganishga yo'naltirish, darsdan tashqari o'qitish (coaching, mentoring) va shaxsiylashtirilgan baholash asosiy o'rinda turadi.

XULOSA.

Zamonaviy ta'lim tizimida andragogik yondashuv — ya'ni kattalarni o'qitishga xos metodlar, tamoyillar va pedagogik uslublar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday jarayonda andragog o'qituvchi – oddiy ma'lumot yetkazuvchi emas, balki o'rganuvchini rivojlantiruvchi, yo'l ko'rsatuvchi, mustaqil o'rganishga yo'naltiruvchi shaxs sifatida qaralmoqda. Shu bois, andragog o'qituvchiga qo'yiladigan talablar ham an'anaviy o'qituvchidan farq qiladigan, chuqurroq va kengroq kompetensiyalarni talab etadi.

REFERENCES:

1. Knowles, M. S. (1980). The Modern Practice of Adult Education: From Pedagogy to Andragogy. Cambridge: Cambridge Adult Education.
2. Merriam, S. B., & Bierema, L. L. (2014). Adult Learning: Linking Theory and Practice. San Francisco: Jossey-Bass.
3. Jarvis, P. (2004). Adult Education and Lifelong Learning: Theory and Practice. RoutledgeFalmer.
4. U.S. Department of Education. (2013). Adult Education Teacher Competencies. <https://lincs.ed.gov>
5. Egetenmeyer, R., & Fedeli, M. (Eds.). (2017). Competence Development in Adult Education. Springer VS.
4. Németh, B., & Poggeler, F. (2008). Competences of Adult Learning Facilitators (ALF). European Commission Research Report.

5. Chawla, M. (2019). Are Egyptian Adult Educators Ready for Action Research?. DVV International. <https://www.dvv-international.de>
6. Srisa-ard, B. (2020). Development of a Competency Model for Non-formal Education Teachers in Thailand. *Journal of Thai Interdisciplinary Research*, 15(2), 123–134.
7. European Commission. (2015). *Key Competences for Lifelong Learning*. Brussels.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi. (2022). *Pedagogik xodimlar faoliyatiga qo‘yiladigan malaka talablari*.
9. Karimova, M. X. (2021). Kattalar ta’limida o‘qituvchining roli va zamonaviy kompetensiyalari. – *Pedagogik ta’lim jurnali*, №3(59), 87–92.
10. Toshtemirova, G. T. (2020). Andragogik yondashuv asosida o‘qituvchi malakasini oshirishning nazariy asoslari. – *Andijon davlat universiteti ilmiy axborotnomasi*, №4, 63–68.
11. OECD. (2019). *Skills Matter: Additional Results from the Survey of Adult Skills*. OECD Publishing.